

**JOURNAL  
OF INNOVATIONS  
IN SCIENTIFIC AND  
EDUCATIONAL RESEARCH  
SJIF(2024):6.618**

# JISER

**International  
multidisciplinary  
scientific journal**



## **Volume 7, Issue 4**

- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation



|            |                                                                                                                                                                     |            |
|------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|            | <i>Allanova Marjona Jumanazar qizi</i>                                                                                                                              |            |
| <b>27.</b> | <b>« EDUCATION AND UPBRINGING OF TEACHERS AND CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS, COOPERATION WITH PARENTS »</b><br><i>Z.M. Zarifova</i>               | <b>147</b> |
| <b>28.</b> | <b>ZULFIYAXONIM HAYOT YŌLARI VA IJODI</b><br><i>Temirova Barno Umarali qizi</i>                                                                                     | <b>152</b> |
| <b>29.</b> | <b>RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI, UNING ZARURATI VA EVOLYUTSIYASI</b><br><i>Saidxonov Akmalxon Shonazar O'g'li</i><br><i>Javmanov Jamshed Abdusamatovich</i> | <b>156</b> |
| <b>30.</b> | <b>ОЦЕНКИ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМ ДЛЯ ГЕОИНФОРМАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ.</b><br><i>Калимбетов Ж.К</i><br><i>Раззаков У</i>                                           | <b>163</b> |
| <b>31.</b> | <b>НАУЧНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИННОВАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ЗЕРНА ЯЧМЕНЯ</b><br><i>Мулдабекова Б Д</i><br><i>Каххаров Ф. Б</i>                                       | <b>168</b> |
| <b>32.</b> | <b>ЗНАЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ ПАМОЛА В ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕДАЧИ ЗЕРНА НА МЕЛЬНИЦУ</b><br><i>Мулдабекова Б.Д</i><br><i>Каххаров Ф. Б</i>                                           | <b>174</b> |
| <b>33.</b> | <b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI</b><br><i>O'roqova Marjona Ikrom qizi</i><br><i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>                              | <b>178</b> |
| <b>34.</b> | <b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING SHAKLLARI</b><br><i>Zaripbayeva Dinara Maxmud qizi</i><br><i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>                    | <b>184</b> |
| <b>35.</b> | <b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI.</b><br><i>Hayitbayeva Sevara Rashid qizi</i><br><i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>        | <b>190</b> |
| <b>36.</b> | <b>DARS MASHG'ULOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARI</b><br><i>Juraqulov Xasan Mavzuddinovich</i><br><i>Ostonov Jasur Shopirjonovich</i>                              | <b>195</b> |

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'RGATISHNING MAZMUNI VA  
VAZIFALARI.**

**Hayitbayeva Sevara Rashid qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi*

**Artikova Nargiz Shuxratovna**

*Ilmiy rahbar Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish shakllari va usullarini ko'rib chiqamiz. Ona tili o'quvchilarning boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirishda, shuningdek, o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash haqidagi tushunchalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.*

**Kalit so'zlar:** *tovush, nutq, ot, sifat, son, olmosh, leksika, lingvistika, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash*

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviysiyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usuli haqidagi (so'z yasashiga doir); so'zlarning leksiksemantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'iadi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikraalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini

muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o'quvtarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nik/malar maktab dasturlari va davlat taMim standartida qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1sinf dan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar.

Sintaksidan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlarning bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda birbiriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to'g'ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan.

Dasturda „Leksika» bo'limi alohida berilmagan, ammo o'quvchilar so'zlarning leksiksemantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma'nolari haqida so'z turkumlari va so'z tarkibini o'rganish jarayonida ma'lumot oladilar.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1 —4sinflarda tilning hamma tomonlarining o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini birbiriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'litn jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Dasturning „Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: „Tovushlar va harflar», „So'z», „Gap», „Bog'lanishli nutq». Asosiy mavzularbosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1—2sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3sinfda so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim hisoblanadi. So'z yasalishiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o'sadi. 4sinfda so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'ringa qo'yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo'shirschalarini, fe'llarning tuslovchi qo'shimchalarini to'g'ri yozish maiakalari shakllantiriladi).

Bog'lanishli nutq ustida to'rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma'nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsiiklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish» qismida

„Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'zo'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urfodatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi», deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab»da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni ta'limning mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi.

„Ta'lim to'g'risida»gi qonunda „Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir», deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1. ...bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

2. ...o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish.

3. ...yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish.

4. o'qish sur'atini oshirish, ta'limning shu bosqichi uchun xos bo'lgan sidirg'a o'qishni egallashlariga erishish.

5. Fikrni yozma bayon etish bo'yicha belgilangan quyidagi ko'nikmalarni egallash:

6. fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
7. tavsifning mavzuga muvofiqligi va itrakammalligi;
8. tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
9. imloviy savodxonlikni egaHashlariga erishish.

Bularni amalga oshirish ona tili ta'limi siklidagi fanlarning, ya'ni savod o'rgatish, o'qish va ona tilining vazifasidir.

Bu vazifalarni ado etish ko'p jihatdan ta'lim mazmunni to'g'ri belgilashga bog'liq. Ona tili ta'limi mazmuni aniq va ilmiynazariy jihatdan to'g'ri belgilansagina, oldinga qo'yilgan talablar to'liq bajariladi.

Ma'lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta'limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o'z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo'lib, birbiriga muvofiq kelishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko'p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Pespublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997-y-avgust.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
3. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y.
4. <https://abiturtest.uz/mavzular/>
5. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. Scientific Impulse, 2(19), 108-110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>
7. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 116-118.
8. Shuxratovna, A. N. (2023). O 'QUV MATERIALLARINING ASOSIY G'OYASINI O'RGANISHGA QIZIQTIRISHDA CLIL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH: O'QUV MATERIALLARINING ASOSIY G'OYASINI O'RGANISHGA QIZIQTIRISHDA CLIL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.
9. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 112-117.

10. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1592-1594.
11. Sultanova, D. A., & Artikova, N. S. (2021). Ta'lim tarbiya jarayoniga psixologik muhit ta'siri. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 418-423.
12. SHuxratovna, A. N., & Muxiddinovna, I. S. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA TOVUSHLARNI TO'G'RI TALAFFUZ QILISHNI O'RGATISH. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 305-309.
13. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277